

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni uchun chegirma

2025 30 May

Faqatgina 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bolalar uchun aviachiptalarga kattalar tarifidan 50% gacha oshirilgan chegirma taqdim etadi.

Aksiya faqat bir kun davomida amal qiladi – 00:00 dan 23:59 gacha. Aviachiptalarni www.uzairways.com saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling. Yo'lovchi tashish tariflariga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va to'lovlar ham o'rnatiladi. Ularga taqdim etiladigan chegirma amal qilmaydi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2025-yil 1-iyun soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun – taqdim etilmaydi;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan, salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 33% gacha (kattalar tarifidan umumiy chegirma miqdori 50% ni tashkil etadi);
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'imlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;

4. Ilgari sotib olingen aviachiptalar 01.06.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi. Shuningdek, ushbu aksiya davrida avvalgi aksiyalar (“Yorqin payshanba” va 28.01.2025 va boshqalar) doirasida to’liq foydalanilmagan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, standart 25% bolalar chegirmasi qo'llaniladi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya’ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
7. Har qanday boshqa chegirmalar bilan birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun taqdim etiladi. Yo'naliш - HY parvoz operatori bo'lgan aviakompaniyaning barcha muntazam qatnovlari (respublika ichidagilarni ham o'z ichiga oladi); “Uzbekistan Helicopters” MChJ (HY1001-1100) va “Silk Avia” qatnovlariga nisbatan amal qilinmaydi;
9. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi. Chegirma qattiq blok joylar to'plamini taqdim etish bo'yicha shartnomalar doirasida, shuningdek, guruhli bronlash uchun rasmiylashtiriladigan aviachiptalarga tatbiq etilmaydi.
10. Chegirma hamrohsiz sayohat qiladigan bolalarga amal qilmaydi.

Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.

Yo'naliшlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviaqatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.

Uzbekistan Airways tarkibiga “Uzbekistan Helicopters” MChJ, “Uzbekistan Airways Technics” MChJ, “Catering” MChJ, “O'quv-mashq markazi” MChJ kabi kompaniyalar

ham kiradi.